HSR (LONDON),
HOUGHTON STREET REVIEW JOURNAL
ISSN: 2058-5519|Impact factor-15.9
http://houghtonstreetreview.com/index.php/hsr

# GOALS AND PROSPECTS OF DEVELOPING THE TRANSPORT AND LOGISTICS SYSTEM AND STRENGTHENING INTERREGIONAL CONNECTIVITY AND ECONOMIC INTEGRATION.

**Olimnazarov Xayotbek**
Student of the Faculty of Law, Termez State University

One of the most widespread areas in the world today is transport and logistics. What is logistics? Logistics is a set of systems aimed at improving the effective organization and management of products and related information throughout all processes from the source of production to the final consumer.[ https://allcargo.market/uz/blog/post/what-is-logistics ] The main task of logistics is to further increase the efficiency of enterprises by reducing costs and improving the level of customer service. Increasing the efficiency of logistics ensures economic development, affects the formation of product prices, expands foreign trade opportunities, and affects the satisfaction of consumer demands.

# TRANSPORT VA LOGISTIKA TIZIMINI RIVOJLANTIRISH HAMDA HUDUDLARARO BOG‘LIQLIK VA IQTISODIY INTEGRATSIYANI KUCHAYTIRISH MAQSADLARI VA ISTIQBOLLARI.

**Olimnazarov Xayotbek**
Termiz davlat universiteti yuridik fakulteti talabasi

Hozirgi kunda dunyoda eng keng tarqalgan sohalardan biri bu transport va logistika hisoblanadi. **Logistika o`zi nima? Logistika** – mahsulotlar va ular bilan bog`liq axborotlarni ishlab chiqarish manbasidan yakuniy iste`molchigacha bo`lgan barcha jarayonlar davomida samarali tashkil etish va boshqarishni takomillashtirishga qaratilgan tizimlar faoliyati yig`indisidir.[1] Logistikaning asosiy vazifasi – xarajatlarni kamaytirish orqali korxonalarda faoliyat samaradorligini yanada oshirish va mijozlarga xizmat ko`rsatish darajasini yaxshilashdir. Logistika samaradorligini oshirish iqtisodiy rivojlanishni ta`minlaydi, mahsulot narxining shakllanishiga ta`sir ko`rsatadi, tashqi savdo imkoniyatlarini kengaytiradi hamda iste`molchilarning talablarini qondirishga ta`sir qiladi.

Logistikaning bir nechta turlari mavjud: transport logistikasi- bu ichki va xalqaro transport bo`lib, yuk mashinalari, temir yo`l va havo yo`llari orqali yuklarni yetkazib berishni amalga oshiradi; ombor logistikasi – ombarlarni samarali boshqarish va saqlash tizimlarini tashkil eishni o`z ichiga oladi; ta`minot zanjiri – ishlab chiqarishdan boshlab mahsulotni iste`molchiga yetkazib berishgacha bo`lgan barcha bosqichlarni qamrab oladi; inventar logistika – ombordagi tovarlarni holatini kuzatish, ularni miqdoriini tashkil qilish va zaxiralarni o`z vaqtida yangilash jarayonidir; reverse logistika –


[1] https://allcargo.market/uz/blog/post/what-is-logistics

HSR (LONDON),
HOUGHTON STREET REVIEW JOURNAL
ISSN: 2058-5519|Impact factor-15.9
http://houghtonstreetreview.com/index.php/hsr

iste`molchilardan qaytgan mahsulotlarni qayta ishlash, tiklash yoki yo`q qilish bilan bog`liq ishlarni o`z ichiga oladi.[2]

Bizning mamlakatimizda ham bu soha keng tarqalgan bo`lib uni rivojlantirishga katta e`tibor qaratilmoqda. O`zbekiston Respublikasida transport logistikasi ko`plab turdagi mahsulatlarni import, eksport qilish va ichki logistikani ta`minlash uchun yaratilgan tizim hisoblandadi. 2024-yilda tashilgan yuklar hajmi 1,52 milliard tonna bo`lib, yuk tashish bo`yicha rekord ko`rsatkichga erishdi. Bu so`nggi o`n yilikdagi eng yuqori ko`rsatkich hisoblanadi. 2020-yilda yuk tashish hajmi 2024-yilga qaraganda 11 foizga past bo`lgan ya`ni 1,37 tonna yuk tashilgan. Bu ko`rsatkichga barcha tashishlarning 92 foizi ya`ni 1,4 milliard tonna bilan eng katta hissani avtamobil transporti qo`shgan. 73,9 mln tonna (4,9%) temir yo`l transportida, 61,8 mln tonna (4,1%) quvur transportida tashilgan. Eng kam miqdorni havo transporti 0,001 foiz bo`lishiga qaramasdan 14,4 ming tonna shoshilinch yuklarni yetkazib bergan. Mamlakat YAIMisining 10-12 foizini transport va logistika xarajatlari tashkil etadi.[3]

Tashilgan yuklar hajmi, jami (yillik)




Hozirda mamlakatimizda “ARDENA TRANSPORT LLC”, “STARWAYS LOGISTICS”, “ABC Logistics” “PRIME SHIPPING LLC”, “BALTCRAFT LLC” kabi logistika bilan shug`ullanuvchi kompaniylar mavjud. O`zbekistonda logistika sohasida ishlovchilarning maoshi ularni egallagan lavozimi, tajribasi, ishlayotgan kompaniyasi ko`lami va boshqa omillarga qarab belgilanadi. Bu yo`nalishda boshlang`ich darajadagi xodimlar 3-4 mln so`m atrofida maosh olishadi, malakasi oshgani sayin maosh ham ortadi va o`rtacha ish haqi 10 mln atrofida bo`ladi, yuqori malakali mutaxassislar esa 25 mln so`m va undan ham ko`proq daromad olishlari mumkin.[4]

[2] https://kapital.uz/uz/logistika-qanday-ishlaydi/
[3] O`zbekiston Respublikasining Milliy statistika qo`mitasi
https://buzb.uz/uz/news/ozbekiston-yuk-tashish-boyicha-eng-yuqori-korsatkichni-yangiladi?utm_source
[4] https://kapital.uz/uz/logistika-qanday-ishlaydi

HSR (LONDON),
HOUGHTON STREET REVIEW JOURNAL
ISSN: 2058-5519|Impact factor-15.9
http://houghtonstreetreview.com/index.php/hsr

Mamlakatimizda logistika sohasini rivojlantirishga katta e`tibor qaratilmoqda. Xususan, 2025-yilning 28-yanvarida Prezidentimiz tomonidan “ O`zbekiston Respublikasining transport-logistika tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to`g`risida” PQ-28-son qarori qabul qilindi. Qarorga ko`ra, 2030-yilgacha O`zbekiston Respublikasining transport-logistikasini rivojlantirish konsepsiyasi ishlab chiqilishi belgilangan va shu konsepsiyada belgilangan vazifalarni 2025-yilda amalga oshirish bo`yicha “Yo`l xaritasi” tasdiqlangan. Yo`l xaritasida quyidagi maqsad va ko`rsatkichlar belgilab qo`yilgan: avtomobil, temir yo`l va havo transporti orqali xalqaro yuk tashish hajmini ikki baravarga oshirish; transport va logistika xizmatlari eksportini ham ikki baravarga oshirish; konteynerdagi ulush hajmini 1,5 barobarga oshirish; Jahon bankining logistika samaradorligi indeksida (LPI) 55-o`rindan past bo`lmagan darajaga ko`tarish.

Shuningdek, konsepsiyaga muvofiq transport-logistika tizimini rivojlantirishning bir nechta ustuvor yo`nalishlari ham qabul qilingan bo`lib, ular quyidagilar hisoblanadi: tashqi savdo yo`nalishlarini yanada divertifikatsiyalash; multimodal tamoyilini rivojlantirish; 3PL va undan yuqori darajadagi kompleks logistika xizmatlarini ko‘rsatadigan yirik milliy transport operatorlarini yaratish va rivojlanishini rag`batlantirish; mamlakatning tranzit salohiyatidan to‘liq foydalanish orqali iqtisodiy ustunlikka erishish; logistika sohasini rivojlantirish uchun tashqi va ichki investitsiya manbalarini jalb etish; xalqaro axborot tizimlari bilan integratsiyalashgan raqamli logistika platformalarini yaratish.[5]

2025-yilning boshida Prezidentimizning farmoniga binoan O`zbekistonda “E-logistika” platformasi ishga tushirildi. Yangi raqamli platformaning joriy etilishi yuk tashish va logistika xizmatlarini to‘liq raqamlashtirishga yordam berdi. Bu esa buyurtma berish jarayonini tez va qulay qilish, tashishni tashkil etishni aniq rejalashtirish hamda yukni qabul qilib olish bosqichlarini tartibli va shaffof tizimga o‘tkazish imkonini beradi. Natijada barcha jarayonlar yagona platforma orqali boshqarilib, ortiqcha vaqt yo‘qotishlari kamayadi. Ushbu platformaning asosiy maqsadi - logistika xarajatlarini optimallashtirish, yuk yetkazib berish muddatlarini qisqartirish hamda xizmatlar sifatini yanada yaxshilashdan iboratdir. Raqamli logistika platformasi turli xil jarayonlarni yagona axborot tizimida boshqarishga xizmat qiladi. Ular quyidagilar: hujjatlar qog‘ozsiz, elektron shaklda yuritilib, barcha ma’lumotlarni tezkor almashish; yuklarning qayerda joylashgani maxsus kuzatuv vositalari orqali aniqlash va ularning harakatini bosqichma-bosqich nazorat qilish; yetkazib berish jarayonida to‘plangan axborotlarni tahlil qilib, katta hajmdagi ma’lumotlar asosida eng qulay va tejamkor yo‘nalishlar tanlab olish. Shu orqali vaqt va xarajatlarni qisqartirish imkoniyati yaratiladi. Bundan tashqari, ta’minot zanjiridagi barcha operatsiyalar izchil qayd etilib, ularning ochiqligi va ishonchliligi ta’minlanadi. Jarayonlarning avtomatlashtirilishi esa inson omili bilan bog‘liq xatolarni kamaytirib, umumiy samaradorlikni oshiradi.[6]

O`zbekiston Jahon bankining logistika indeksida 139 ta mamlakat Ichida 2016-yilda 118-o`rin, 2023-yilda esa 2,6 ball bilan 88-o`rinni egallagan. Yuqoridagi konsepsiyaga muvofiq esa 2030-yilgacha 55-o`rindan past bo`lmagan pog`onaga chiqishni maqsad qilib qo`ygan. Jahon bankining logistika indeksi 6 ta ko`rsatkich bo`yicha baholanadi. Bular: bojxona; infratuzilma; xalqaro tashishlar;

[5] O`zbekiston Respublikasi Prezidentining O`zbekiston Respublikasining transport-logistika tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to`g`risida qarori
https://lex.uz/uz/docs/-7342148
[6] https://12news.uz/save/ozbekistonda-e-logistika-raqamli-platformasi-ishga-tushirildi

HSR (LONDON),
HOUGHTON STREET REVIEW JOURNAL
ISSN: 2058-5519|Impact factor-15.9
http://houghtonstreetreview.com/index.php/hsr

logistika sifati va malakasi; kuzatib borish imkoniyatlari; vaqt. O`zbekiston eng yuqori ballni xalqaro tashish bo`yicha olgan 2,8 va eng past korsatkichlari 2, 4 bo`lib bular infratuzilma va kuzatib borish hisoblanadi. Qolgan uchta ko`rsatkich bo`yicha 2,6 balldan olgan.

| | № | Davlat | PI | Customs | Infrastructure | International shipments | Logistics competence | Timeliness | Tracking |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| | 1 | Singapore | 4.3 | 4 | 4.2 | 4.6 | 4.0 | 4.4 | 4.3 | 4.4 |
| | 2 | Finland | 4.2 | 4 | 4.0 | 4.2 | 4.1 | 4.2 | 4.3 | 4.2 |
| | 3 | Denmark | 4.1 | 4 | 4.1 | 4.1 | 3.6 | 4.1 | 4.1 | 4.3 |
| | 4 | Germany | 4.1 | 4 | 3.9 | 4.3 | 3.7 | 4.2 | 4.1 | 4.2 |
| | 5 | Netherlands | 4.1 | 4 | 3.9 | 4.2 | 3.7 | 4.2 | 4.0 | 4.2 |
| 4 | 5 | Hungary | 3.2 | 3 | 2.7 | 3.1 | 3.4 | 3.1 | 3.6 | 3.4 |
| 5 | 5 | Kuwait | 3.2 | 3 | 3.2 | 3.6 | 3.2 | 2.9 | 2.8 | 3.3 |
| 6 | 5 | Romania | 3.2 | 3 | 2.7 | 2.9 | 3.4 | 3.3 | 3.6 | 3.5 |
| 7 | 8 | Russian Federation | 2.6 | 2 | 2.4 | 2.7 | 2.3 | 2.6 | 2.9 | 2.5 |
| 8 | 8 | Uzbekistan | 2.6 | 2 | 2.6 | 2.4 | 2.6 | 2.6 | 2.8 | 2.4 |
| 37 | 1 | Somalia | 2.0 | 2 | 1.5 | 1.9 | 2.4 | 1.8 | 2.3 | 1.8 |
| 38 | 1 | Afghanistan | 1.9 | 1 | 2.1 | 1.7 | 1.8 | 2.0 | 2.3 | 1.6 |
| 39 | 1 | Libya | 1.9 | 1 | 1.9 | 1.7 | 2.0 | 1.9 | 2.2 | 1.8 |

O`zbekistonda yuk tashishda talab qilinadigan hujjatlarning ko`pligi logistika sohasidagi muammolardan biri hisoblanadi. Ko‘plab xususiy sektor vakillarining fikricha, chegaradan o‘tish jarayonlari yetarli darajada samarali emas va bu holat chegara nazorat punktlarida uzoq davom etadigan tirbandliklarni keltirib chiqarmoqda. Ayniqsa, qishloq xo‘jaligi mahsulotlari eksport qilinadigan mavsumning eng faol davrida ushbu muammo yanada yaqqol seziladi. Tez buziluvchan yuklarni tashuvchi tadbirkorlar ko‘pincha uzoq kutishga majbur bo‘lib, bu vaqt bir necha soatdan bir necha kungacha cho‘zilishi mumkin. Natijada mahsulot sifati pasayadi yoki butunlay yaroqsiz holga

HSR (LONDON),
HOUGHTON STREET REVIEW JOURNAL
ISSN: 2058-5519|Impact factor-15.9
http://houghtonstreetreview.com/index.php/hsr

keladi. Masalan, ayrim vaziyatlarda o‘rik kabi mevalar uzoq muddatli kutish sababli sezilarli darajada zarar ko‘radi yoki yo‘qotiladi. Garchi bunday toifadagi yuklarga ustuvorlik berilishi nazarda tutilgan bo‘lsa-da, navbatlarni samarali tashkil etmaslik ularning tezkor rasmiylashtirilishiga jiddiy to‘sqinlik qilmoqda. [7]

Avtomobil transportida yuk tashish uchun quyidagi hujjatlar talab qilinadi: transport vositasining ro‘yxatdan o‘tganligini tasdiqlovchi hujjat; xalqaro yuk tashish ruxsatnomasi; xalqaro yuk tashish daftarchasi; tez buziladigan mahsulotlar uchun maxsus ruxsatnoma; xavfli yuklar uchun maxsus ruxsatnoma; yuk tashish shartnomasini tasdiqlovchi transport hujjati; tijorat hujjatlari (invoice va boshqalar); xalqaro pochta jo‘natmalariga oid kuzatuv hujjatlari[8].

Bu bo`yicha xorij davlatlarida, xususan, Lyuksemburgda O`zbekistonnikiga qaraganda kamroq hujjatlar talab qilinadi. Lyuksemburgda logistika rivojlangan bo`lib, Jahon banki logistika indeksida 93.6 ball bilan 26-o`rinni egallaydi. Lyuksemburgdagi bojxonadan olib o`tilayotgan yuklar uchun beshta hujjat talab qilinadi. Bular: SAD - bojxona deklaratsiyasi; invoice– tovar narxi va sotuv ma’lumoti; transport hujjati (CMR / BL / AWB) – yuk qayerdan qayerga ketayotganini tasdiqlaydi; packing list – yuk ichidagi mahsulotlar ro‘yxati; origin certificate – tovar qayerda ishlab chiqarilganini ko‘rsatadi[9].

SAD (Single Administrative Document) deklaratsiyasi yuk bilan bog‘liq asosiy ma’lumotlarni yagona shaklda jamlashga xizmat qiladi. Unda, avvalo, tijorat hujjatlaridan olingan ma’lumotlar, ya’ni tovarning qiymati, sotuvchi va xaridor haqidagi axborotlar aks ettiriladi. Shu bilan birga, transport hujjatlariga tayangan holda yukning jo‘natilish va yetkazib berilish yo‘nalishi, tashish turi hamda tashuvchi subyekt to‘g‘risidagi ma’lumotlar kiritiladi. Yukning tarkibi va qadoqlanishiga oid tafsilotlar esa packing list asosida ifodalanadi. Tovarning qaysi mamlakatda ishlab chiqarilgani haqidagi ma’lumot kelib chiqish sertifikati orqali ko‘rsatiladi. Bundan tashqari, zarurat tug‘ilganda, tegishli ruxsatnomalar va sertifikatlar deklaratsiyaga qo‘shimcha hujjat sifatida biriktiriladi. Shu tariqa, SAD turli hujjatlardagi ma’lumotlarni bir tizimda birlashtirib, bojxona jarayonlarini soddalashtirishga xizmat qiladi.[10]

SADning afzalligi shundaki - ushbu hujjat orqali turli alohida hujjatlarga bo‘lgan ehtiyoj kamayadi va rasmiylashtirish jarayoni ancha soddalashadi. Natijada bojxona amaliyotlarida ortiqcha byurokratiya qisqarib, yuklarni qayta ishlash tezligi oshadi. Bundan tashqari, standartlashtirilgan ma’lumotlar asosida ishlash xatoliklar ehtimolini kamaytiradi hamda nazorat jarayonini yanada aniq va samarali qiladi.[11]

Lyuksemburg tajribasi shuni ko`rsatadiki, SAD deklaratsiyasini joriy etish bojxonadagi ishlarni soddalashtirishga yordam beradi. O`zbekistonda bu tizim joriy etilganda hujjatlar soni kamayadi, chunki hozir alohida talab qilinadigan invoice, transport hujjati va boshqa ma’lumotlar bitta SAD deklaratsiyasi ichiga kiritiladi. Natijada rasmiylashtirish jarayoni tezlashadi va ortiqcha byurokratiya qisqaradi.

[7] https://www.oecd.org/en/publications/2025/11/enhancing-the-competitiveness-of-the-trans-caspian-transport-corridor-in-central-asia_e989025f/full-report/uzbekistan_ba1d1189.htmt
[8] https://lex.uz/docs/-2876354
[9] https://logistics.public.lu/en/formalities-procedures/required-documents.html?utm_source=chatgpt.com
[10] https://taxation-customs.ec.europa.eu/single-administrative-document-sad_en
[11] https://taxation-customs.ec.europa.eu/customs/customs-procedures-import-and-export/customs-declarations_en

HSR (LONDON),
HOUGHTON STREET REVIEW JOURNAL
ISSN: 2058-5519|Impact factor-15.9
http://houghtonstreetreview.com/index.php/hsr

Shuningdek, bojxona operatsiyalari raqamli va avtomatlashtirilgan tizimga o‘tadi, bu esa vaqt va xarajatlarni kamaytiradi. Tizimning shaffofligi ham oshib, nazorat jarayonlari aniqroq bo‘ladi.[12]

Xulosa qilib aytganda, O‘zbekistonda so‘nggi yillarda transport va logistika sohasini rivojlantirish yo‘lida keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Ushbu jarayonda ilg‘or xorijiy tajribadan oqilona va tizimli foydalanish sohaning yanada takomillashuviga, samaradorlikning oshishiga hamda xalqaro standartlarga moslashuviga muhim hissa qo‘shadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar**

1. **Jahon banki – Logistics Performance Index (LPI)**
https://lpi.worldbank.org/
2. **World Bank – Connecting to Compete (LPI report)**
https://www.worldbank.org/en/publication/logistics-performance-index
3. **O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi** https://stat.uz/
4. **O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-28-son qarori**
https://lex.uz/uz/docs/-
5. **Yevropa Ittifoqi – Single Administrative Document (SAD)**
https://taxation-customs.ec.europa.eu/customs-4/customs-procedures-import-and-export-0/single-administrative-document-sad_en
6. **Lyuksemburg bojxona va logistika tizimi (Customs Luxembourg)**
https://douanes.public.lu/en.html
7. **Logistika va ta’minot zanjiri asoslari – Britannica**
https://www.britannica.com/topic/logistics

[12] https://taxation-customs.ec.europa.eu/customs-procedures_en